

Janizaqov Abduvahob Esirgapovich

Jizzax politexnika instituti, Jizzax, O'zbekiston

DUNYO ARXITEKTURA ILMI RIVOJIDAGI ZAHA HADIDNING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda raqamli arxitekturaning dolzarbligi, rivoji, raqamli arxitekturaning egri yuzasiga ega bo'lgan plitalar va qobiqlardan foydalanib noyob arxitektura loyihalari yaratgan mashhur arxitektor ayol Zaha Hadid hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, raqamli arxitektura, yashil arxitektura, bionika, kompyuter, raqamli texnologiyalar.

Janizakov Abduvahob Esirgapovich

Jizzakh Polytechnic Institute, Jizzakh, Uzbekistan

ZAHA HADID'S PLACE IN THE DEVELOPMENT OF WORLD ARCHITECTURE

Abstract: This article describes the relevance and development of digital architecture in the modern world, the life and work of the famous architect Zaha Hadid, who created unique architectural projects using plates and shells with curved surfaces of digital architecture.

Keywords: green economy, digital architecture, green architecture, bionics, computer, digital technologies.

Kirish. Zamonaviy dunyoda odamlar qulay muhitda, tabiat bilan uyg'unlikda yashashga intiladi. Arxitektorlar yashil binolar majmualarini yaratishga intilishadi, ularning dizaynida yangi materiallar va yangi texnologiyalar qo'llaniladi, murakkab geometrik shakllar bilan tuzilmalar yaratadi. Bunda ular ko'pincha egri yuzasiga ega

bo'lgan plitalar va qobiqlardan foydalanadilar. Bunday qobiq va plitalar katta yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Mashhur me'mor Zaha Hadid ko'pincha bunday me'moriy shakllardan keng foydalangan.

Zaha Hadid o'zining takrorlanmas ijodi bilan arxitekturada inqilob qildi desak xato qilmaymiz. U zamonaviy arxitekturadagi eng mashhur ayol shaxslardan biri hisoblanadi. Uning innovatsion loyihalari arxitektura dizaynlari va texnologiyalarida odatiy bo'lgan yechimlar haqidagi tasavvurni o'zgartirdi.

Zaha Hadid 1950 yil Iroqning Bog'dod shahrida katta sanoatchi oilasida dunyoga keldi. Katoliklar maktabida o'qidi.

“Men tinchlik zamonida o'sib ulg'aydim, urushdan keyingi qayta qurish yilari, yangi arxitektura, dizayn, siyosat, falsafa, ayollarning ilm olishlari bularning hammasi meni ilhomlantirardi. Men birinchi marta Moskvaga borganimni juda yaxshi eslayman, bularning hammasi quvonarli edi”.



1-rasm. Mashhur arxitektori ayol - Zaha Hadid. (1950-2016)



2-rasm. Uchta davlat idoralari uchun mo'ljallangan ko'p funktsiyali kompleks. Fransiya.

Shundan so'ng Hadid Bayrutda matematikani o'rgandi. 1970 - yilda Londonning arxitektura assotsiatsiyasiga o'qishga ketdi, o'qishni tugatib Rotterdam shahridagi Rem Kulxaas va Eli Zengelis ofisida ishlay boshladi. Oxirgi 40-yilda u Londonda yashab keldi.

Hadid Londonda Dizaynning hamma sohalarida: shaharlarni rejalashtirish, inter'ernlarda, mebellar dizaynida, oyoq kiyimlar va atirlar dizaynida faol qatnashar edi. 1972-1977 yillarda Londondagi Arxitektura Assotsiatsiyasida o'qidi.

Asosiy qism. 1968-yilda G'arb yoshlarining arxitekturaviy umidlari so'ndi, lekin yangi arxitekturaning asosiy qonun qoidalari o'z kuchida qoldi. Tarixiy uslublar ichida modernizm va yangi ratsionalizm imkon darajasida kirib keldi.

Yuqoridagi loyiha muallifi Zaha Hadid yangi arxitektura uslubini oxirigacha tugatishni maqsad qildi, natijada u bu uslub bilan yangi bir dunyo kashf etdi. Hadid arxitektura Assotsiatsiyasida dars berar edi va keyinchalik bu yerda 1987 yilda o'z ustaxonasini ochdi. Gankongdagi erishgan yutuqlaridan so'ng, ketma-ket boshqa halkaro konkurslarda qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Uning ko'pgina eksperimental xarakterga ega bo'lgan rang tasvir va rasmlari qator jurnallarda chop etildi.

Hadid har doim O'rta Sharqda ijod qilib, chiroyli binolarni yaratishni o'ziga maqsad qilgan. Uning bu yerlarga kelganida: uning arab qizi sifatida unga manzur bo'lganini ta'kidlab o'tadi. "Men jonim bilan bu yerning shaharsozligida ishlashni va qabul qilingan bosh reja asosida loyiha rejalashtirishni hoxlardim" - deydi.

Shunday ekan arxitekturada ham u o'z shaxsiy fikriga ega bo'lish va rostgo'ylikni yaxshi ko'radi. Dunyoda insonlar: bir xil fikrlashi, bir xil intilishi va bir biriga o'xshashi mumkin, lekin har bir inson individual bitta xarakterga ega bo'ladi. Unga boshqa birov o'xshamaydi.

Arab ayoli 2004 yilda arxitekturada Nobel mukofotiga tenglashtirilgan birinchi Presker mukofotiga sazovor bo'lgan. Hadid ayollar to'g'risida shunday deydi. "Ayol arxitektor bo'lishi va shu bilan birga o'zga yurtda yashash va insonlar bilan muomala qilish ayol uchun juda qiyin". 1994 yilda Uelsda o'tkazilgan konkursing 3 bosqichida g'olib chiqadi.

Hadid arxitektura sohasida o'z yutuqlari haqida gapirib, ayollarning bu sohada yaxshi yutuqlarni qo'lga kiritib, yuqori kareralarga ega bo'lishlari mumkinligini aytadi.

Hadid o'qigan Arxitektura Assotsiyasi yetuk va rivojlangan oliy dargoh hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, bu dargoh o'ziga xos talablarga ega. Hadidga berilgan "Nima sizni xafa qiladi?" degan savolga u quyidagicha javob beradi: "Meni xech narsa xafa qilmadi. Agar siz yengil hayot kechirishni xoxlasangiz, arxitektor bo'lmang, chunki bu kasb egalari xar doim va erta-yu kech shu kasb bilan bo'lishi kerak. Qachonki insonlar meni tushunishmasa, bu meni xafa qiladi. Ochig'ini aytganda erkaklarga nimanidir tushuntirish qiyin, ular har doim o'zlarini boshqalarga nisbatan ko'p narsa bilishini ta'kidlashadi. Insonlardagi betartiblik meni ko'proq xafa qiladi".

Hadid uzoq vaqt nazariyotchi-arxitektor sifatida, keyinchalik taniqli, butun jahon taniydigan arxitektorga aylandi. U har doim amalda quriladigan loyihalarni chizgan, uning loyihalari qog'ozlarda qolib ketmagan, hammasi amalda bajarilgan.

Zaha Hadidning eng mashhur asarlari sifatida quyidagilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

1. Guangzhou opera teatri (Xitoy);
2. Shayx Zayed ko'prigi (BAA);
3. Haydar Aliyev markazi (Ozarbayjon);
4. London suv sporti markazi (Buyuk Britaniya);
5. MAXXI muzeyi (Italiya).

Jumladan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Alievning 2006 yil 29 oktabrdagi qarori bilan tasdiqlanib qurilgan "Gaydar Aliev markazi" butun jahon arxitekturasida yorqin iz qoldirgan arab qizi Zaha Hadidning loyihasi asosida bunyod etildi.



3-rasm. Ozarbayjon, Boku shahridagi Haydar Aliyev nomidagi madaniyat markazi
(arxitektor Zaha Hadid)

Zaha Hadid loyihalagan markaz Ozorbayjonning sobiq prezidenti Gaydar Alievning davlat qurilishi filosofiyasi va ideologiyasini o'rganish hamda ozar xalqi tarixi, tili, madaniyati va milliy boy merosining butunjahon taraqqiyotidagi o'rnining asl mohiyatini ochib berish asnosida qurilgan.

Qurilish 101,801m² maydonda olib borilgan. 2013 yilning oktabr oyida Gaydar Aliev markazi loyihasi Singapur davlatida bo'lib o'tgan jahon arxitekturasida Festivalida taqdim etildi.

Binoning oq rangi yorqin kelajak ifodasi bo'lib, bu yerga tashrif qiluvchilarga maqsadga erish istagini ulashishga qaratilgan. Oq rang tabiatning rangi bilan qo'shiladi va o'ziga yarasha joziba kashf etadi.

Hadid turmushga chiqmagan, farzandi yo'q edi. Uning yashash sharoiti juda oddiy bo'lgan. Lekin o'z taqdiridan mamnun ekanligini ta'kidlagan. Zaha Hadid 2016 yilda vafot etdi.

Xulosa. Zaha Hadid nafaqat zamonaviy arxitektura landshaftini o'zgartirdi, balki an'anaviy erkaklarga xos kasbda ayollar muvaffaqiyatining ramzi bo'ldi. Uning ishlari, jozibali uslubi me'morlarning yangi avlodini ilhomlantirmoqda. 2016 yilda vafot etganiga qaramay, u asos solgan Zaha Hadid Architects byurosi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar orqali uning merosi davom etmoqda.

Raqamli arxitektura arxitekturaning boshqa sohalari doirasida ham rivojlanib, me'morchilikning bu yo'nalishi ustuvor bo'lib, o'n yillar davomida jahon me'morchiligining rivojlanishini belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil"Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori.

2.Schumacher, Patrik. Digital Hadid. Landscapes in Motion. Basel-Boston-Berlin: Birkhauser Publishers for Architecture, 2004.

3. Wilson, Peter. The Park and the Peak - Two International competitions // Architectural Association School of Architecture, 1983.